



## YANGI DAVRDA O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTON MUNOSABATLARI.

**Choriye Sardor To'xtamish o'g'li**

corievsardor6@gmail.com

Tel: +99894 512 56 46

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

**Choriye Samandar To'xtamish o'g'li**

samandarchoriye044@gmail.com

Tel: +99894 904 08 31

Termiz davlat universiteti

**Jovliye Muzaffar Xolmirza o'g'li**

muzaffarjovliye665@gmail.com

Tel: +99894 510 05 45

Termiz davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10462154>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-January 2024 yil

Ma'qullandi: 04- January 2024 yil

Nashr qilindi: 05- January 2024 yil

### KEY WORDS

Loyiha, Eksport, Tolibon,  
Gumanitar, Xavfsizligi

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada Afg'onistonning yangi davrdagi tashqi aloqalari haqida bilib olishingiz mumkin. O'z navbatida Afg'onistonning O'zbekiston bilan ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalar ham yoritilib o'tgan. Xususan O'zbekistonning Afg'onistonda amalga oshirgan loyihalar bo'yicha ham bilib olishingiz mumkin. Bevosita O'zbekistonning Afg'onistonning moddiy jihatdan qilayotgan yordami haqida ham batafasil ma'lumotga ega bo'lasiz.*

2020 yilning noyabr oyida prezident Shavkat Mirziyoyev «Afg'oniston Islom Respublikasi bilan iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida» qarorni [imzoladi](#). Qarorga muvofiq, 500 kVt quvvatga ega bo'lgan «Surxon — Puli-Xumri» elektr uzatish liniyasi (EUL) qurilishi bo'yicha yirik loyihalarni amalga oshirish ishlarini jadallashtirish rejalashtirilgan. Uzunligi 260 km bo'lgan yangi EUL O'zbekistondan Afg'onistonga elektr energiyasi yetkazib berish hajmini 70% ga oshirib, yiliga 6 mlrd kVt/soat ga yetkazish imkonini beradi. Loyiha qurilishi to'g'risidagi [bitim](#) Osiyo taraqqiyot banki tomonidan 110 mln dollar miqdoridagi moliyalashtirish mablag'lari ajratilishi [tasdiqlanganidan](#) keyin imzolangan. EULning O'zbekiston hududidagi qismi qurilishi 2021 yil mart oyigacha yakunlanishi, Afg'oniston hududidagi qurilish ishlari avgust oyidan boshlanishi rejalashtirilgan edi. Shuningdek, qarorda afg'on bozorida o'zbek mahsulotlari raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida Afg'onistonga eksport qilinadigan sement, temir, suyultirilgan gaz, un, bug'doy, tuxum va o'simlik yog'i kabi asosiy tovarlar narxlarini pasaytirish choralarini ko'rish nazarda tutiladi. Bundan tashqari, fevral oyi boshida O'zbekiston, Afg'oniston va Pokiston Toshkentda «Mozori-Sharif — Kobul — Peshovar» temir yo'li qurilishining yo'l xaritasini [imzoladi](#). Loyiha may oyida tayyorlanishi kerak edi, yo'l qurilishi ishlarini joriy yilning sentyabr oyidan boshlash rejalashtirilgan[1]. Shavkat Mirziyoyev buni asr loyihasi deb [atadi](#), shuningdek, mazkur temir yo'l O'zbekiston tarixidagi eng yirik loyihalardan biri bo'lishini ta'kidladi. O'zbekiston 2023 yilgacha Afg'oniston bilan

o'zaro savdo hajmini **2 mlrd dollarga** yetkazishni rejalashtirmoqda. O'zbekistonning eksport potensialini oshirish maqsadida Termizda yillik tovar aylanmasi 500 mln dollar bo'lgan xalqaro savdo markazi [qurilishi](#) rejalashtirilmoqda. Umumiy qiymati 75 mln dollarga teng bo'lgan savdo markazida mahsulotlarni qabul qilish, saqlash, qayta ishlash, saralash va qadoqlash, shuningdek, sotish terminallari joylashtiriladi[2].

O'zbekiston Respublikasi SMTI (ISMI) vakilining fikriga ko'ra, 1990 yillarda Tolibon harakatini yakkalash siyosati o'zini oqlamaganligini ko'rsatmoqda. Ekspert fikriga ko'ra, yuzaga kelgan vaziyat va avvalgi yillar tajribasi Afg'onistonning yangi hukumati bilan konstruktiv muloqotlarni davom ettirishni taqozo etmoqda. Bunday yondashuv asosida yangi hukumatni xalqaro jamiyat qonunlarini inkor etmagan holda qo'shnilar bilan o'zaro tinch-totuv yashashga intiluvchi kuchga transformatsiyalash imkonini beradi, degan ishonchlar bor. Shuni alohida qayd etish lozimki, O'zbekiston hukumati Tolibon harakati bilan anchadan beri muzokaralar olib bormoqda va AQSH qo'shinlarining olib chiqilishi ushbu jarayonni yana-da tezlashtirdi. Afg'onistondagi vaziyat va jarayonlarga nisbatan, O'zbekistonning tutgan pozitsiyasi va siyosatning amalga oshirilishini to'laqonli siyosiy realizm nazariyasiga kiritish mumkin. Bundan tashqari, bunday pozitsiyani nafaqat O'zbekiston, balki Yevropaning ba'zi mamlakatlari (Rossiya, Belarus) va Osiyoning (Xitoy, Pokiston, Hindiston, Eron, BAA, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston va boshqalar) bir qator mamlakatlari egallagan. O'zbekiston tomonidan bunday siyosat yuritilishi muayyan natijalarni bermoqda[3].

Buni "Tolibon" harakati boshchiligidagi hukumatning xavfsizlik borasidagi O'zbekiston hukumatiga bergan kafolatlari, o'zbek xalqining buyuk namoyandalarining maqbaralari tiklanishi va obodonlashtirilishi, iqtisodiy-ijtimoiy loyihalar, jumladan, Termiz-Mozori-Sharif-Qobul-Qarachi Trans-Osiyo temir yo'l loyihasini tezlik bilan davom ettirish bo'yicha tayyorgarligida ko'rish mumkin. Bugungi kundagi real haqiqat va vaziyat shundan iboratki, Markaziy Osiyo mintaqasi qiyinchilik bilan bo'lsa-da, «land lock area» (kontinental darajada yopiq makon) maqomidan chiqmoqda, transport-logistik jihatdan ochilmoqda, shu bilan birga, turli tashqi kuchlarning faol raqobat obyekti sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, bu yerda bir-biriga mos bo'lmagan va ba'zida qarama-qarshi bo'lgan, YEOII, Xitoyning tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan "Bir yo'l, bir makon" loyihasi, AQSHning "S5+1", YEIning kengaytirilgan hamkorligi, Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi kabi strategik yo'nalish va loyihalarni alohida qayd etish zarur. Bunday reallikning vujudga kelishi bir qancha muammo va ziddiyatlar bilan bir qatorda geografik o'rni qulay, muayyan resurslarga ega bo'lgan, oqilona siyosat yurita oladigan davlatlar uchun aksincha, keng imkoniyatlar yaratadi. O'zbekiston tashqi siyosatining keyingi jihati bir nechta o'zaro bog'liq bo'lgan va bir-birini to'ldirib turuvchi ustuvor yo'nalishlar, yondashuvlar va omillarga ega, ya'ni:

- geosiyosiy: global davlatlar o'rtasida geosiyosiy kurashlarning oqibatlarini kamaytirish va yangi "katta o'yin" ("big game")ni boshlashga bo'lgan harakatlarning oldini olish, beqarorlikning mamlakatdan tashqariga chiqishiga yo'l qo'ymaslik;
- xavfsizlik va siyosat: Afg'oniston fuqarolarining, jumladan, o'zbek millatiga mansub aholining xavfsizligi va siyosiy huquqlarini ta'minlash (mamlakat aholisining 9%dan ortig'i);
- ijtimoiy: Amerika harbiylari chiqib ketishi va Afg'oniston iqtisodiyotini moliyalashtirish to'xtatilganligi bilan bog'liq gumanitar halokatning oldini olish (Afg'onistonga moliyaviy yordam oqimlari 2009 yilda 100%ni tashkil etgan bo'lsa, 2020 yilga kelib 42,9%gacha kamaydi);

– iqtisodiy: Afg'oniston bozori O'zbekiston uchun yirik eksport bozorlaridan biri hisoblanadi. Xususan, birgina 2020 yilning o'zida O'zbekistonning ushbu mamlakatga eksporti 776,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Vaholanki, import hajmi 334 marotaba kam bo'lib — bor-yo'g'i 2,3 mln. dollarni tashkil etdi. Shuningdek, 2023 yilga qadar Afg'oniston bilan o'zaro tovar aylanmasini 2 mlrd. dollarga yetkazish ko'zda tutilgan edi. Ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro tovar aylanmasining o'sishi har ikki davlat uchun ham o'ta foydali bo'lib, bu so'nggi yillarda iqtisodiy jihatdan jadal o'sayotgan O'zbekiston uchun minglab qo'shimcha ish o'rinlari deganidir. Bugungi O'zbekiston uchun har bir ishchi o'rni o'ta muhim ahamiyatga ega[4].

O'zbekiston pozitsiyasining geosiyosiy jihati shundan iboratki, mamlakat geostrategik o'ringa ega bo'lib (geografik determinizm), asta- sekinlik bilan Yevroosiyoing strategik jihatdan muhim mintaqalariga “darvoza” sifatida transformatsiyalanmoqda. Bunday holat, o'z navbatida, mintaqa doirasida O'zbekistonning milliy manfaatlarini muhofaza qilishi va mustaqil siyosat yuritishi uchun zarur geostrategik o'ringa (geografik determinizm), jumladan, iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Amaliyotlar shuni ko'rsatmoqdaki, Afg'oniston muammolarini harbiy kuch asosida yechish muvaffaqiyatsiz yakunlandi va asosga ega emas. Shulardan kelib chiqqan holda toliblar bilan “yumshoq kuch” (power soft) yordamida olib borilayotgan konstruktiv muzokaralar (O'zbekiston va boshqa mamlakatlar misolida) Afg'oniston aholisining hayoti xavfsizligi va fuqarolik huquqlarini ta'minlash imkonini bermoqda, shu jumladan, o'zbek diasporasi vakillari uchun ham. Mamlakatdagi bugungi vaziyatdan kelib chiqqan holda barcha mamlakatlar va jahon hamjamiyatining asosiy vazifalaridan biri mamlakatdagi gumanitar halokatning oldini olish vazifasi bo'lishi kerak. Vaholanki, inson hayoti haqida gap ketganda (bu yerda esa millionlab insonlar hayoti to'g'risida, jumladan, aholining eng zaif qatlami hisoblanmish bolalar va ayollar haqida so'z bormoqda) barcha mamlakatlar va kuchlar uchun milliy manfaatlar, ambitsiya va tamoyillarni chetga surib turish o'ta muhim. O'zbekiston oldida esa jahon hamjamiyatining gumanitar o'zaro harakatni intensivlashtirish va muvofiqlashtirish vazifasi turibdi.

O'zbekiston hukumatining Afg'onistondagi vaziyatga nisbatan yuritayotgan siyosati va geografik o'rni mamlakatdagi gumanitar halokatning oldini olish bo'yicha harakatlarning muvofiqlashtiruvchisi va yetakchisiga aylanishi uchun sharoit va imkoniyatlar yaratmoqda. Bu esa O'zbekiston uchun ushbu mamlakatda harbiy yo'l bilan emas, balki tinch yo'l bilan o'z ta'sirini saqlab qolish imkonini kuchaytiradi. Shulardan kelib chiqqan holda muallif fikriga ko'ra, O'zbekiston hukumati gumanitar aksiyalarni tizimli asosda davom ettirishi zarur. Shuningdek, Afg'oniston hududi hamda chegara oldi zonalarida ayollar va bolalarga tibbiy yordam ko'rsatuvchi tibbiy markazlarni tashkil etish maqsadga muvofiq.

### **Xulosa**

Afg'oniston bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etishini nazarda tutgan holda, mamlakatning yangi hukumati bilan ushbu sohada tegishli tartibda hujjatlarni imzolash zarurati mavjudligini ta'kidlash lozim. Mamlakatimizning Afg'oniston bilan keyingi yillardagi o'zaro savdo aylanmasiga e'tibor qaratar ekanmiz, bu borada ijobiy o'sish kuzatilayotganiga guvoh bo'lamiz.

Jumladan, keyingi 5 yilda o'zaro tovar va xizmatlar aylanmasi hajmi 600 million AQSH dollaridan 800 million AQSH dollariga ko'tarilgan. Ushbu ko'rsatkichni kelgusida 2 milliard AQSH dollarigacha yetkazish imkoniyati mavjud hamda mazkur yo'nalishda bir qator tegishli

savdo-iqtisodiy kelishuvlar va bitimlar imzolash zarurati yuzaga kelgan. Ushbu kelishuv va bitimlar toliblar hukumati bilan imzolanishi va xalqaro huquq normalariga mos kelishi lozim. Bundan tashqari, toliblar hukumati bilan mintaqadagi qo'shni davlatlar o'rtasida chegaralar daxlsizligi, chegara hududlarida xavfsizlikni ta'minlash, gijohvandlik moddalari yetishtirilishi va oldi-sotdisiga chek qo'yish, fuqarolarning o'zaro qo'shni davlatlarga kirish-chiqishi va harakatlanishi masalalarida ham hamkorlikni o'rnatish hamda olib borish zarur.

O'zbekiston tomoni mintqa davlatlari, hamkor mamlakatlar va Afg'oniston bilan barcha ustuvor yo'nalishlardagi munosabatlarni chuqurlashtirish hamda afg'on xalqining turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan yirik infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirishda hamkorlikni davom ettirishga sodiqligini namoyon qilmoqda. Bu barcha ishtirokchi tomonlar manfaatiga to'la mos keladi hamda butun mintaqaning kelgusi taraqqiyoti uchun muhim poydevor bo'ladi.

#### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. Mir G'ulom Muhammad G'ubor. Afg'oniston tarix. 1399.
2. Rashidov R. Afg'onistonda davlatchilik masalasi: tarix va hozirgi zamon. Monografiya. 2017.
3. A.M.Mannanov, N.A. Abdullayev, R.R.Rashidov. Afg'oniston tarixi. 2018.
4. " Afg'oniston-O'zbekiston munosabatlarining yangi yangi bosqichi" Qodiri Ahmad Qais, 2020.
5. Mamarajabov, B. N. M. O. G. (2023). MARKAZIY OSIYODA ARABLAR BILAN BOG'LIQ IJTIMOIIY QATLAMLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5), 1048-1052.
6. Mamarajabov, B. N. M. O. G. (2022). ARABISTON YARIM OROLIDA DAVLATCHILIKNING SHAKLLANISHI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10), 118-121.

INNOVATIVE  
ACADEMY